



**HAMZA'S WORK IN THE PERSPECTIVE OF LITERARY
SCHOLARSHIP (BASED ON THE BROCHURE
"BARHAYOT HAMZA" BY LITERARY SCHOLAR
SALOHIDDIN MAMAJONOV)**

Dilshoda Raimqul qizi Sodiqova

Master's Student, Tashkent State University of
Uzbek Language and Literature

Specialization: Literary Studies (Theory of Literature)

Email: sodiqovad905@gmail.com. Phone: +998 93 137 17 98

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18859429>

ARTICLE INFO

Received: 22nd February 2026

Accepted: 27th February 2026

Online: 28th February 2026

KEYWORDS

*Hamza, treatise, literature,
Jadid, criticism, analysis,
dramaturgy, creativity,
enlightenment, history,
personality.*

ABSTRACT

This article provides a scholarly analysis of Salohiddin Mamajonov's "Barhayot Hamza" treatise. It examines Hamza Hakimzoda Niyoziy's life and literary work, his aesthetic perspectives, and his significance within the Jadid cultural movement. The study highlights the treatise's contribution to both Hamza scholarship and the broader field of literary studies.

**HAMZA IJODI ADABIYOTSHUNOS TALQINIDA (ADABIYOTSHUNOS
SALOHIDDIN MAMAJONOV "BARHAYOT HAMZA" RISOLASI ASOSIDA)**

Sodiqova Dilshoda Raimqul qizi

ToshDO'TAU magistrature adabiyotshunoslik: adabiyot nazariyasi
yo'nalishi. sodiqovad905@gmail.com +998931371798

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18859429>

ARTICLE INFO

Received: 22nd February 2026

Accepted: 27th February 2026

Online: 28th February 2026

KEYWORDS

*Hamza, risola, adabiyot, jadid,
tanqid, tahlil, dramaturgiya,
ijod, ma'rifat, tarix, shaxsiyat.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada Salohiddin Mamajonovning "Barhayot Hamza" risolasi ilmiy tahlil qilinadi. Unda Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayoti va ijodiga berilgan baho, uning adabiy-estetik qarashlari hamda jadidchilik davridagi o'rni yoritiladi. Tadqiqotda risolaning hamzashunoslik va adabiyotshunoslik rivojiga qo'shgan hissiy ochib beriladi.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi keskin o'zgarishlar milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik harakatining kuchayishi hamda jadidchilik g'oyalarning shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Jadidchilik nafaqat ta'lim tizimini isloh qilish, balki jamiyat tafakkurini yangilash, milliy o'zlikni anglash va taraqqiyot yo'lini belgilashga qaratilgan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo'ldi. Ana shunday tarixiy sharoitda ijod qilgan bir qancha jadid namoyondalari, xususan, Behbudiy,



Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Hamza kabi marifatparvarlar ijodi milliy realizmning shakllanishida, dramaturgiya va teatr san'atining rivojida, publitsistika va she'riyatning ijtimoiy yo'nalish kasb etishida muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga jadid namoyondalari hayoti va ijodiy merosini tadqiq etish masalasi bir necha o'n yillardan buyon adabiyotshunoslik va tarixshunoslik fanlarining dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib kelmoqda. Ushbu soha bo'yicha ko'plab olimlar tomonidan izchil ilmiy izlanishlar olib borilib, jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy hamda badiiy-estetik mohiyati turli metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Jadid adabiyoti vakillarining hayot yo'li, ijodiy shakllanish bosqichlarini, g'oyaviy qarashlari hamda milliy uyg'onish jarayonidagi o'rni arxiv manbalar, tarixiy hujjatlar va badiiy asarlar negizida qayta tadqiq etildi. Xususan, Hamza Hakimzoda Niyoziy shaxsiyati va ijodiy merosi bilan bog'liq ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. N. Karimov, L.Qayumov, Sh. Amonov, Sh. Ahmedov, Nabijon Qoqiy kabi olimlarning tadqiqotlari Hamza ijodi o'rganishni yangi bosqichga olib chiqdi. Shu bilan birga akademik Salohiddin Mamajonovning 1991- yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining "Fan" nashriyotida bosilib chiqqan "Barhayot Hamza" nomli risolasi Hamza shaxsini yangicha ilmiy-estetik mezonlar asosida baholashga qaratilgan muhim tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Muallif Hamza siymosini biryoqlama mafkuraviy talqinlardan xoli holda, tarixiy haqiqat va adabiy-estetik mezonlar asosida yoritishga intiladi. Risolaning asosiy maqsadi — Hamza

merosining zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini ochib berish, uning ijodiy qarashlarini chuqur tahlil qilish, ijodi jarayoni bevosita ijtimoiy hodisalar bilan bog'liq ekanligini asosli dalillar bilan ko'rsatish hamdir. Risola 5 bobdan iborat bo'lib, 1.Zamondoshimiz. 2.Hayotiy va jangovar she'riyat 3. "Yashasin mazlum mehnatkashlar uchun jonini qurbon qilgan fidokorlar" 4. "Yo butun dunyo kulsin, yo butun dunyo yig'lasin" 5.Barhayot Hamza 6.Hamza va din kabi qismlardan iborat. Risolada Hamza shaxsiyati va ijodi turli aspektlarda yoritilgan bo'lib, boblar o'zaro mantiqiy izchillik asosida qurilgan. "Zamondoshimiz" nomli ilk bobda muallif Hamza shaxsiyatini faqat tarixiy arbob sifatida emas, balki zamonaviy davr uchun ham ahamiyat kasb etuvchi ijodkor sifatida yoritadi. Shu bilan birga muallif Hamzaning g'oyalari — ma'rifat, adolat, tenglik va ijtimoiy uyg'onish va ayollarga erkinlik berish kabi masalalari — hozirgi jamiyat bilan hamohang ekanini asoslashga, va shu orqali "barhayotlik" konsepsiyasiga ilmiy nuqtai nazarda izchil tarzda yondashadi. Mazkur bobda Hamza ijodining zamon bilan uzviy bog'liqligi, uning adabiy va ijtimoiy faoliyati orqali davr muammolarini yoritishdagi o'rni atroflicha tahlil qilinadi. Muallif Hamzani faqat shoir yoki dramaturg sifatida emas, balki xalq taqdiri uchun mas'uliyatni chuqur his qilgan, haqiqatni so'z orqali himoya qilgan faol jamoat arbobi sifatida ham talqin etadi. Bobda Hamza asarlarida hukmron tuzum, jaholat, xurofot va ijtimoiy tengsizlik keskin tanqid ostiga olingani ta'kidlanadi. Adib "pastki qatlam" vakillarining og'ir



hayotini haqqoniy tasvirlab, ularning ozodligi va insoniy qadr-qimmatini himoya qilishni bosh maqsad qilib qo'yadi. Ayniqsa, ayollar ozodligi, ularning jamiyat hayotidagi faolligini ta'minlash g'oyasi Hamza ijodining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Bu jihat uning asarlarida zamon haqiqatini ochib beruvchi yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi. "Hamza ijodining birinchi davrida baxt-saodatga faqat ilm, maorif orqaligina erishish mumkin deb o'yladi va she'rlari, publitsistik maqolalari, povestlari, dramalarida xalqni ilm-ma'rifatga qizg'in targ'ib etdi. Lekin u doim xalq tomonida turdi, uning taqdiriga dil-dilidan achindi va o'zining "Faqirlik nimadan hosil o'lur?" (1914) maqolasida bu haqda kuyunib yozdi. Ikkinchi sinf uchun mo'ljallab tuzgan "Qiroat kitobi"da (1915) jafo, zulm, tama kabi illatlarni axloqqa zid narsa sifatida ta'rifladi. U maktablarda ham shu haqiqatni baralla aytdi, nurparvar shaxs sifatida elga tanildi. U o'z maqsad va g'oyalarining xalqqa tezroq yetib borishini o'ylab badiiy sodda yo'lda asarlar yaratdi, hatto xalq orasida keng tarqalgan qo'shiqlar ohangiga yangi qo'shiqlar yozib, "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" majmuasini tuzdi (1915-1917). Majmuaning "Safsar gul" bo'limini mardikorlik voqeasiga bag'ishlab, mardikorlarning qattiq noroziligini ochiq ifodaladi. Chunki u mardikorlik voqeasining mehnatkash xalq boshiga keltirgan barcha kulfatlarini o'z ko'zi bilan ko'rди, shuning uchun ham bu voqea to'g'risida qator she'rlar va

"Loshmon fojiasi" nomli trilogiya ham yozdi."¹ Shuningdek, bobda Hamzaning "haqiqat" tushunchasiga munosabati markaziy o'ringa qo'yilgan. Adib butun ijodi davomida "Haqiqat kim tomonida?" degan savolga javob izlaydi va bu savolga mehnatkash xalq, ezilgan omma manfaatlarini nuqtayi nazaridan yondashadi. Inqilobdan oldingi va keyingi asarlarida ham haqiqat uchun kurash g'oyasi uzluksiz davom etib, she'r, drama, tragediya va publitsistik maqolalarda turli badiiy shakllarda ifodalanadi. Bob muallifi Hamzaning badiiy qahramonlarini faol, kurashchan va fidoyi obrazlar sifatida tahlil qiladi. Bu qahramonlar ko'pincha "yo o'lim, yo najot" yoqasida turib, haqiqatni tanlashga majbur bo'ladi. Muallif "Zaharli hayot" pyesasi qahramonlari tili tahlili orqali ijodkor maqsadini ochib beradi, va shu orqali adib jamiyatni uyg'otish, xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-ma'rifatga chorlashni ko'zlaganligini alohida ta'kidlaydi. Hamzaning nazarida xalqning qashshoq va og'ir hayot kechirishining asosiy sababi — ilmsizlik va ijtimoiy ongning sustligidir.

Risolaning keyingi bobida munaqqid Hamza she'riyatining g'oyaviy badiiy xususiyatlari va uning tarixiy o'rnini ko'rsatishga harakat qiladi. Hamza o'zbek adabiyoti tarixida mumtoz she'riyat bilan yangi davr she'riyati o'rtasida ko'prik vazifasini bajargan ijodkor sifatida baholanadi. Salohiddin Mamajonov "Barhayot Hamza" risolasida adib ijodining aynan shu jihatiga alohida urg'u berib, uning she'riy merosini g'oyaviy, tarixiy va estetik mezonlar

¹ Mamajonov S. Barhayot Hamza.T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining "Fan" nashriyoti, 1991.6-bet



asosida tahlil qiladi. Tadqiqotchi Hamzani sotsialistik jamiyatning ilk shoirlaridan biri sifatida ko'rsatarkan, bu xulosani uning Oktabr to'ntarishigacha bo'lgan butun ijodini ozodlik, adolat va yuksak ideal g'oyalari bilan sug'orilganligi bilan asoslaydi.

Risolada ta'kidlanishicha, Hamza she'riyati dastlab mumtoz an'analarga suyangan holda shakllangan. Uning 1914-yilda yaratilgan "Devon"i hamda diniy mazmundagi g'azal, muxammas va musaddaslari klassik poetik an'analar bilan chambarchas bog'liqdir. Biroq shoir bu an'anaviy shakllar orqali zamonaviy ijtimoiy mazmunni ifodalashga intiladi. U adolatsiz tuzumni, zulm va tengsizlikni tanqid qiladi. Natijada mumtoz shakl yangi g'oyaviy mazmun bilan to'ldiriladi. Hamza she'riyatining muhim bosqichi "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi" bilan bog'liqligi alohida ta'kidlanadi. Mamajonov bu asarni shoir ijodidagi burilish nuqtasi sifatida baholaydi. Mazkur to'plamda Hamza xalqchil, sodda va tushunarli tilni tanlab, she'rlarni xalq qo'shiqlari ohangida yaratadi. Bu uslub shoirning maqsadi ommaga yuzlanishini, xalqning "qalb ko'zini ochish"ni ko'zlaganini ko'rsatadi. U jaholat, qoloqlik, ijtimoiy tengsizlik, mustamlakachilik zulmini ochiq tasvirlab, xalqni uyg'onishga da'vat etadi. Mamajonov tahliliga ko'ra, Hamza dastlab zulm qarshisida iztirob va ichki isyon ruhida qalam tebratgan bo'lsa, keyinchalik xalq kuchiga ishonch bilan yo'g'rilgan optimistik ruhga o'tadi. U xalqni birlashishga, "yo'l izlash"ga, haq yo'lida kurashishga chorlaydi. Bu jarayonda shoirning fuqarolik pozitsiyasi yanada mustahkamlanadi. Hamzada "shoir" va "insoniylik" tushunchalari

uyg'unlashadi. U she'rni estetik hodisa emas, balki ijtimoiy qurol darajasiga ko'taradi. 1917-yillarga kelib Hamza to'laqonli inqilobiy ruhdagi she'rlar yaratadi. "Uyon, vatan!", "Hoy ishchilar!", "Ishchi bobo" kabi asarlarida u yangi hayot, yangi tuzum, ijtimoiy tenglik g'oyalarini targ'ib qiladi. Inqilobdan so'ng esa xotin-qizlar erki, yangi jamiyat qurilishi, mehnatkashlar birligi masalalari shoir ijodining markaziga aylanadi. Bu jihatdan Hamza she'riyati o'z davrining siyosiy-ijtimoiy ruhi va romantik pafosini aks ettirgan badiiy hodisadir.

Risolada Hamzaning novatorligi ham alohida qayd etiladi. U klassik an'ana bilan yangi sovet she'riyati o'rtasida uzviy bog'liqlik yaratdi. Mumtoz poetik shakllarni zamonaviy mazmun bilan boyitdi, she'rni ijtimoiy ongni shakllantirish vositasiga aylantirdi. Uning ko'p qirrali ijodi — she'riyat, dramaturgiya, musiqa, rejissyorlik va pedagogik faoliyati — yagona maqsad, ya'ni xalqni ma'rifat va ozodlik sari yetaklash g'oyasiga xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, Salohiddin Mamajonov ushbu bobda Hamza ijodining g'oyaviy-estetik rivojlanish bosqichlarini ketma-ketlikda yoritib beradi. Shoirning mumtoz an'adan inqilobiy she'rlariga qadar bosib o'tgan yo'li, uning xalqparvarlik va haqiqatparastlik ruhi asoslab beriladi. Hamza ijodi ham boshqa marifatparvarlar qatori o'zbek adabiyoti tarixida yangi davrni boshlab bergan, milliy she'riyatni yangi mafkuraviy-estetik bosqichga olib chiqqan muhim hodisa sifatida talqin etiladi.

Hamza ijodi va hayot yo'li o'zbek adabiyoti tarixida fidoyilik,



haqiqatparastlik va ijtimoiy jasoratning yorqin namunasidir. “Yashasun mazlum mehnatkashlar uchun jonini qurbon qilgan fidokorlar!” degan shior nafaqat uning asarlaridagi qahramonlar ruhiyatini, balki shoirning o‘z hayotiy pozitsiyasini ham ifodalaydi. Salohiddin Mamajonov mazkur uchinchi bobda Hamzani ulug‘ gumanist, qat’iyatli inson va o‘tli publitsist sifatida talqin etadi.

Mazkur bobda munaqqid, avvalo, Hamza ijodida ijtimoiy kurash ruhining shakllanish bosqichlarini tahlil qiladi. U shoir she’riyatidagi g‘oyaviy keskinlik kurashi tasodifiy chiqish emas, balki tarixiy sharoit va sinfiy ziddiyatlar mahsuli ekanini asoslaydi. Mamajonov Hamzaning lirik qahramoni endi faqat oshiq yoki ma’rifatparvar emas, balki ijtimoiy faol shaxsga aylanganini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, munaqqid shoirning mazlum mehnatkash obrazini ideallashtirish emas, balki ijtimoiy xarakter darajasiga ko‘tarish jarayoniga e’tibor qaratadi. Hamza asarlarida mehnatkash omma romantik shior darajasida emas, balki tarixiy harakatlantiruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Bu jihat, Mamajonov talqiniga ko‘ra, Hamza poetikasida yangi bosqichni anglatadi.

Uchinchidan, bobda fojaviylik va qahramonlikning o‘zaro uyg‘unligi alohida tahlil qilinadi. Munaqqid Hamza dramatik asarlaridagi halokat motivini shunchaki yoki oddiy qurbonlik emas, balki chinakam fidoyilik sifatida sharhlaydi. Ya’ni, qahramonning o‘limi mag‘lubiyat emas, g‘oyaning tantanasi sifatida talqin qilinadi. Bu talqin orqali Mamajonov Hamza ijodidagi inqilobiy

ijtimoiy kurash ruhini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Shuningdek, munaqqid Hamza til va uslubidagi publitsistik jo‘shqinlik hamda poetik obrazlar uyg‘unligiga ham to‘xtaladi. Uning fikricha, shoirda shior va badiiy tasvir qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi estetik vositadir. Aynan shu xususiyat Hamza she’riyatiga tashviqiy kuch bilan birga badiiy ta’sirchanlik ham bag‘ishlaydi.

Hamza komediyalari o‘zbek adabiyotida kulgi san’ati va satira rivojining noyob namunalarini tashkil etadi. Muallif ushbu bobda Hamza komediyalariga alohida to‘xtaladi va shakllanish bosqichlarini, hatto ilk yozgan komediyalari va umrining oxirlarida yozgan komediyalarini chuqur tahlil qilib kamchiliklari xususida ham to‘xtaladi. Muallif bobda asosan Hamza komediyalarida ishlatiladigan kulguli vositalar, personajlarning xarakteri, xalq ijodi ta’siri, ijtimoiy tanqid, kompozitsiya uyg‘unligi va ayol obrazlariga alohida e’tibor beradi.

Hamza komediyalarini tekshirar ekan munaqqid, asosan bir necha jihatlariga e’tibor qaratadi. Avvalo, u komediyada kulgu vositalarining xilma-xilligini tahlil qiladi. Hamza asarlarida sarkazm, kulguli vaziyatlar, shuningdek, personajlarning nutq va xarakteridan foydalangan holda kulgi yaratish san’ati ustuvor o‘rinni egallaydi. Masalan, «Maysaraning ishi»da personajlar o‘z harakatlari va o‘zini tutishlari orqali kulgi yuzaga keladi, bu esa satirik va yumoristik xususiyatlarni uyg‘unlashtiradi.

Munaqqid e’tiborni personajlarning xarakteri va ularning ijobiy-salbiy tomonlariga qaratadi. Mulla



Do'st, Qosimjon, Maysara kabi obrazlar orqali nafaqat kulgi yaratiladi, balki jamiyatlardagi adolatsizlik va noto'g'ri odatlar tanqid qilinadi. Shu bilan birga, ijobiy qahramonlar orqali adolat, sadoqat va insonparvarlik qadriyatlari ta'kidlanadi. Hamza komediyalaridagi kulguni yanada boyitadigan yana bir asosiy omil – xalq ijodining ta'siridir. Qo'g'irchoq teatr, Nasriddin afandi latifalari, xalq odat va an'analari, hikoyalari komediyalarga milliy ruh va o'ziga xoslik baxsh etadi. Bu esa asarlarining kulgili vaziyatni tabiiy, jonli va tushunarli qiladi.

Munaqqid shuningdek, kompozitsiya uyg'unligiga e'tibor beradi. Hamza asarlarida barcha voqealar, personajlar va kulguli elementlar bosh masala bilan uzviy bog'langan. Ortiqcha yoki nomuvofiq epizodlar yo'qligi, dramatik va kulguli qatlamlarning uyg'unligi asarning sifatini oshiradi. Xususan, Hamza ayol obrazlariga katta e'tibor bergani qayd etiladi. Maysara kabi adolatparvar, jasur va faol ayol qahramonlar orqali nafaqat ijtimoiy masalalar yoritiladi, balki ayollarning mustaqilligi va kuchi ham namoyon bo'ladi. Natijada, Hamza komediyalarida kulguni yaratish vositalari – nutq, xarakter, vaziyatlar, takrorlash va sir tutish kabi elementlarning uyg'un qo'llanishi bilan yanada samarali bo'ladi. Munaqqidning tahlili shuni ko'rsatadiki, Hamza komediyalarida xalq ijodi, ijtimoiy tanqid, kulguli vositalar va mustahkam kompozitsiya uyg'unligi asarning milliy va badiiy qadriyatlarini belgilaydi.

Munaqqid yozadi, "Hamza va din" masalasi hamzashunoslikda atayin bir chetga surib qo'yilgan masaladir, deydi.

"To'g'rirog'i, Hamzaning dinga bo'lgan munosabati deyarli bir tomonlama yoritib kelindi. Ya'ni Hamza dinning ashaddiy dushmani edi va butun ijodi davomida unga qarshi faol kurash olib bordi, degan fikr-aqida hukmronlik qildi. Shu soxta, uydirma hukmnomadan kelib chiqib Hamzaning diniy mavzudagi g'azallari, she'rlari va nasriy asarlari, maqolalari, tarjimayi holiga doir hujjatlar, dalillar bir chekkaga surib kelindi, uning majmualariga, hatto «Mukammal asarlar to'plami»ga ham kiritilmadi. Uning «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi», «Qiroat kitobi»dan o'rin olgan «hamd-u sano»lar ham yulib olinib, Hamza «silliqlanib» tavsiya etildi. Albatta, bunga klassik yozuvchilar to'g'rirog'i, inqilobdan avval o'tgan ijodkorlarga nisbatan qo'llanib kelingan adolatsiz mezon va bu mezonni keltirib chiqargan mafkuramizdagi «sinfiylik» degan tor, bir tomonlama tushuncha sababdir. Oqibatda islom madaniyati bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar bir chekkaga surib qo'yildi, ochig'ini aytganda, oyoqosti qilindi. Islomdagi ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, axloqiy qonun-qoidalar asil mohiyat e'tibori bilan umumbashariy mazmunga ega va ular jamiyatni tartibga solish, boshqarish, insonni ma'naviy jihatdan barkamol qilish uchun xizmat etgan. Chunki islomdagi axloqiy qoidalar, shuningdek dunyoda mavjud dinlar mehvarida turgan umumbashariy qonun-qoidalar butun insoniyat tomonidan asrlar davomida yig'ilgan, to'plangan, sinovdan o'tgan axloqiy



normalardir.² Ko`rinib turibdiki munaqqid Hamzaning diniy e'tiqodini bir tomonlama yoritish xato ekanligini qattiq tanqid qiladi va uning diniy she'rlari, maqolalari, nasriy asarlari va tarjimai holiga e'tibor qaratadi.

Hamzaning she'rlari, g'azallari, musaddas va muxammaslarida hamd, na't va boshqa diniy motivlarning mavjudligi, shuningdek bu motivlarning ijtimoiy, ma'rifiy va axloqiy ahamiyatini tushuntiradi. Shoir tasavvufning ayrim elementlarini, xususan, sha'riyat, axloqiy muomala va ma'naviy barkamollik kontekstida qamrab olganligini qayd etadi. Hamzaning diniy faoliyati va publitsistikasiga Rossiyadagi oktabr to'ntarishi va yosh sovet hukumati siyosatining ta'siri, diniy an'analarga bo'lgan munosabat va ularni qanday himoya qilgani ko'rsatiladi va Hamzaning diniy va milliy qarashlarini uyg'unligi – din va milliylikni bir-birini inkor qilmaydigan, balki birlashtiruvchi vosita sifatida ishlatganligi alohida ta'kidlanadi.

Xulosa o'nida shuni aytish mumkinki, Salohiddin Mamajonovning "Barhayot Hamza" risolasida o'zbek jadid adabiyotining yirik shaxslaridan biri – Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodi keng qamrovli tahlil qilinadi. Risola Hamza hayoti, ijodi, jamiyatdagi o'rni va zamon ruhini yoritishga qaratilgan bo'lib, nafaqat adabiy, balki ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy kontekstlarda ham Hamzani o'rganadi. Mamajonovning asosiy maqsadi Hamzaning ijodiy merosini o'quvchiga har tomonlama ko'rsatish va uning milliy adabiyotdagi o'rnini aniqlashdir.

Risolada Hamzaning ijodi ikki asosiy oqimga bo'lingan: bir tomondan, u xalq adabiyoti va folklor ildizlariga tayangan holda xalqning hayotini, odatlarini, ijtimoiy muammolarini yoritadi; boshqa tomondan, u zamonining ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlariga javob beradigan, yangi qarashlar va qadriyatlarni ilgari suradigan yozuvchi sifatida ko'rsatiladi. Mamajonov Hamzaning har bir janr va turdagi asarlarini – she'riyat, drama, komediya – puxta o'rganib, ularni bir-biri bilan bog'liq kontekstda tahlil qiladi. Risolada yana bir e'tibor Hamza she'rlari xalq og'zaki ijodining o'zaro bog'liqligiga qaratilgan. Mamajonov Hamza asarlaridagi motivlar, latifalar, qo'g'irchoq teatri va folklor elementlarini chuqur tahlil qiladi va ularni Hamza ijodiy metodining ildizi sifatida ko'rsatadi. Shu bilan birga, u Hamzaning yevropa va rus adabiyoti ta'sirini, zamonaviy g'oyalar bilan uyg'unlashganligini ham ta'kidlaydi. Risolada muallif Hamzaning ijtimoiy mas'uliyatli yozuvchi sifatidagi roli, xususan, eski tuzum, adolatsizlik, o'z vazifasini suis'temol qilgan din vakillarini va zamon muammolarini tanqid qilishdagi jasorati bilan alohida e'tibor qaratadi. Mamajonov shuningdek, Hamza ijodida ayol qahramonlarining erkinligi va jamiyatdagi roli, milliy qadriyatlar va insonparvarlik g'oyalari qanday aks etganini ochib beradi.

Munaqqid uslubida risola tanqidiy nuqtai nazar bilan, ilmiy tahlil va talqin asosida yozilgan. Mamajonov faktlarni keltiradi, ularni ilmiy asoslar

² Mamajonov S. Barhayot Hamza.T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining "Fan" nashriyoti,1991.39-bet



bilan bog'laydi, hamda Hamza ijodini tarixiy, ijtimoiy va adabiy tahlil qiladi. Risola o'quvchini Hamza ijodi orqali o'sha davrning ruhini, jamiyatdagi muammolarni va adabiyotning jamiyatdagi o'rnini anglashga chorlaydi va bevosita Hamza asarlarini o'qish orqali ham. Shuningdek, muallif o'z mulohazalarida Hamzaning ijodiy va badiiy usullarini, kompozitsiya, janr va g'oya uyg'unligini tahlil qilgan holda o'quvchiga ilmiy fikrni yetkazadi. Xulosa qilib aytsa, "Barhayot Hamza" risolasi

Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodini har tomonlama, milliy va xalq ildizlari bilan uyg'un, zamon ruhini hisobga olgan holda o'rganadi. Risola nafaqat Hamzaning ijodiy merosini yoritadi, balki o'quvchiga Hamza orqali o'zbek adabiyoti tarixining rivojlanishi, ijtimoiy masalalarga yondashuvi va milliy qadriyatlarni tushunish imkonini beradi. Mamajonovning munaqqidona uslubi esa asarning ilmiy asoslanganligini va tahliliy chuqurligini ta'minlaydi.

References:

1. Mamajonov S. Barhayot Hamza.T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining "Fan" nashriyoti,1991.
2. Amonov SH. Hamza she'riyatining manbalari, matniy tadqiqi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent: 2010.
3. Ahmedov SH. Hamza lirikasining xususiyatlari (devon misolida). Filol. fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent: 1992.
4. Nabijon B. Hamza monologi.
5. Hamza. To'la asarlar to'plami, 4-jild, T.: "Fan" 1989-yil